

MIRXONDNING “RAVZAT US-SAFO” ASARIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SULOLASI TARIXINING AKS ETISHI

Maxmudov Kalimullo Mas’ud o’g’li

Hidoya o’rta maxsus islom ta’lim muassasasi o’qituvchisi

Maxmudovkalimullo01@gmail.com

Tel: 995406633

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21055909>

Annotatsiya: Mazkur maqolada XV asr tarixnavislik maktabining yirik vakili Mirxond tomonidan yaratilgan “Ravzat us-safo” asarida Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixining yoritilishi tahlil qilinadi. Asarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati, unda keltirilgan ma’lumotlarning ilmiy qiymati hamda Temuriylar davri siyosiy, madaniy va ma’naviy hayotini o’rganishdagi o’rni yoritilgan. Shuningdek, asarda Amir Temurning davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari va temuriy hukmdorlarning ilm-fan hamda madaniyat rivojiga qo’shgan hissasi haqida berilgan ma’lumotlarning tarixshunoslikdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari “Ravzat us-safo” asarining Temuriylar davri tarixini o’rganishda muhim va ishonchli manbalardan biri ekanligini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: Mirxond, Ravzat us-safo, Amir Temur, Temuriylar davri, tarixnavislik, tarixiy manba, Hirot, XV asr, davlat boshqaruvi, madaniy meros, tarixshunoslik, Temuriylar Renessansi.

ОТРАЖЕНИЕ ИСТОРИИ АМИРА ТЕМУРА И ДИНАСТИИ ТИМУРИДОВ В СОЧИНЕНИИ МИРХОНДА «РАВЗАТ УС-САФО»

Аннотация: В данной статье анализируется освещение истории Амира Темура и династии Тимуридов в произведении «Равзат ус-сафо», созданном выдающимся представителем исторической школы XV века Мирхондом. Рассматриваются значение произведения как исторического источника, научная ценность содержащихся в нем сведений, а также его

роль в изучении политической, культурной и духовной жизни эпохи Тимуридов. Особое внимание уделяется сведениям о государственном управлении Амира Темура, его военных походах и вкладе тимуридских правителей в развитие науки и культуры. Результаты исследования подтверждают, что «Равзат ус-сафо» является одним из важных и достоверных источников по истории эпохи Тимуридов.

Ключевые слова: Мирхонд, Равзат ус-сафо, Амир Темура, эпоха Тимуридов, историография, исторический источник, Герат, XV век, государственное управление, культурное наследие, историческая наука, Тимуридский Ренессанс.

THE REPRESENTATION OF AMIR TEMUR AND THE TIMURID DYNASTY IN MIRKHAND’S WORK “RAWZAT AL-SAFA”

Abstract: This article analyzes the representation of Amir Temur and the Timurid dynasty in Rawzat al-Safa, a historical work written by Mirkhwand, one of the prominent historians of the fifteenth century. The study examines the significance of the work as a historical source, the scholarly value of the information it contains, and its role in studying the political, cultural, and spiritual life of the Timurid period. Particular attention is paid to the descriptions of Amir Temur’s state administration, military campaigns, and the contribution of Timurid rulers to the development of science and culture. The findings demonstrate that Rawzat al-Safa remains one of the most important and reliable sources for the study of Timurid history.

Keywords: Mirkhwand, Rawzat al-Safa, Amir Temur, Timurid period, historiography, historical source, Herat, fifteenth century, state administration, cultural heritage, historical studies, Timurid Renaissance.

KIRISH

Temuriylar davri O‘rta Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish, ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti bilan ajralib turadigan muhim tarixiy

bosqich hisoblanadi. XIV–XV asrlarda Amir Temur va uning avlodlari tomonidan barpo etilgan davlat nafaqat harbiy-siyosiy qudrati, balki yuksak ma’naviy va madaniy qadriyatlari bilan ham jahon sivilizatsiyasi tarixida munosib o‘rin egallagan. Ushbu davrda ilm-fan, adabiyot, me’morchilik va tarixnavislik sohalarining rivojlanishi natijasida ko‘plab nodir asarlar yaratildi. Bu manbalar bugungi kunda temuriylar davri tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Temuriylar tarixini tadqiq etishda yozma manbalar alohida o‘rin tutadi. Ana shunday muhim manbalardan biri mashhur tarixchi Mirxond tomonidan yaratilgan “Ravzat us-safo fi sirat al-anbiyo val-muluk val-xulafa” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarjimai holining poklik bog‘i”) asaridir. Ushbu asar jahon tarixini qamrab oluvchi yirik tarixiy ensiklopediya bo‘lib, unda qadimgi davrlardan muallif yashagan zamongacha bo‘lgan voqealar batafsil yoritilgan. Asarning muhim qismlaridan biri Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar, siyosiy munosabatlar hamda ijtimoiy hayot haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

“Ravzat us-safo” nafaqat tarixiy voqealarni bayon etuvchi manba, balki o‘zida ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni ham mujassamlashtirgan asar hisoblanadi. Mirxond tarixiy shaxslar faoliyatini yoritishda ularning adolat, halollik, vatanparvarlik, xalqparvarlik va insonparvarlik kabi fazilatlariga alohida e’tibor qaratadi. Asarda hukmdorlarning axloqiy qiyofasi, davlat boshqaruvidagi mas’uliyati, xalq oldidagi burchi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bu jihatlar asarning nafaqat tarixiy, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham oshiradi.

Temuriylar davri tarixini o‘rganish yosh avlodda milliy g‘urur, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mirxond asarida tasvirlangan voqealar va tarixiy shaxslarning faoliyati orqali adolatli boshqaruv, ilm-ma’rifatga e’tibor, insoniylik va ezgulik kabi umuminsoniy

qadriyatlar targ‘ib etiladi. Shu sababli “Ravzat us-safo” asari nafaqat tarixiy manba, balki ma’naviy-ma’rifiy meros sifatida ham katta qimmatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida temuriylar davri tarixining yoritilishini tahlil qilish, asarda keltirilgan tarixiy ma’lumotlarning ilmiy ahamiyatini ochib berish hamda unda aks etgan ma’naviy-axloqiy qarashlarni yoritishdan iboratdir. Asarning yaratilishi va tuzilishi.

Asarning ilk muallifi Mir Muhammad ibn Sayid Burhoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy — Mirxond (1433–1498) o‘rta asr tarix fanining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biridir. Mirxondning otasi Sayid Burhoniddin Xovandshoh ham zamonasining bilimdon kishilaridan bo‘lib, Temuriylar hukmronligi davrida Buxorodan Balxga kelib qolgan.

Ota-bobolari buxorolik bo‘lib, fiqh ilmida zamonasining yetuk olimlari sifatida mashhur bo‘lgan. Ulardan Mahmud ibn Ahmad al-Mahbubiy (vafoti tax. 1300) fiqh ilmida peshqadam olim bo‘lganligi uchun “Toj ash-shari’a” (“Shariat toji”) nomi bilan tanilgan va sharqning mashhur fiqh olimi Sayid Burhonuddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asariga “Viqoya ur-rivoyat fi masoil ul-Hidoya” (“Hidoya masalalarini himoya qiluvchi rivoyatlar”) nomli sharh yozgan⁵⁵.

Mirxond (1433–1498) Hirotda yashab ijod qilgan mashhur tarixchi bo‘lib, uning ilmiy faoliyati Husayn Boyqaro davridagi madaniy muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Asar Alisher Navoiy homiyligida yaratilgan bo‘lib, muallifning eng yirik tarixiy merosi hisoblanadi.

“Ravzat us-safo” muqaddima, yetti jild, xotima va geografik qo‘shimchadan iborat. Asar quyidagi tarixiy davrlarni qamrab oladi:

⁵⁵ Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 1999. – B. 245

1. Dunyoning yaratilishidan Sosoniylar hukmdori Yazdigard III davrigacha bo‘lgan voqealar;
2. Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) va dastlabki to‘rt xalifa davri;
3. O‘n ikki imom tarixi hamda Umaviylar va Abbosiylar davri;
4. Abbosiylar bilan zamondosh bo‘lgan sulolalar tarixi
5. Mo‘g‘ullar, Chingizxon va uning avlodlari hamda Amir Temur davrigacha mavjud bo‘lgan sulolalar;
6. Mo‘g‘ullar, Chingizxon va uning avlodlari hamda Amir Temur davrigacha mavjud bo‘lgan sulolalar;
7. Amir Temur va uning zamonidan Sulton Abu Sa‘id vafotigacha bo‘lgan voqealar;
8. Husayn Boyqaro, uning farzandlari va Shayboniyxon tarixiga oid voqealar.

Tarixiy manbalar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Mirxond asarning yettinchi jildini to‘liq yakunlay olmagan. Ushbu qism keyinchalik uning nabirasi va mashhur tarixchi Xondamir tomonidan davom ettirilgan. Asarda voqealar 1523-yilgacha yetkazilgani ham aynan Xondamir qalamiga mansubligini tasdiqlaydi.

“Ravzat us-safo”ning oltinchi jildi Amir Temur va uning davriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Temurning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari va xalqaro munosabatlari keng bayon etiladi.⁵⁶

Mirxond Amir Temurni markazlashgan davlat asoschisi, kuchli sarkarda va adolatli hukmdor sifatida tasvirlaydi. Muallif uning Movarounnahrda siyosiy tarqoqlikka barham bergani, davlat boshqaruvida tartib va intizomni qaror toptirgani hamda ilm-fan va madaniyat rivojiga e‘tibor qaratganini alohida ta’kidlaydi.

⁵⁶ Mirxond. *Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo val-muluk val-xulafo*. VI jild. Tehron: Intishoroti Xayyom, 1959. – B. 3–25.

Asarda Temurning Eron, Iroq, Hindiston va boshqa hududlarga qilgan yurishlari haqida ham ma’lumotlar beriladi. Biroq zamonaviy tarixshunoslik nuqtai nazaridan ushbu voqealarni baholashda bir tomonlama yondashuvdan qochish muhimdir. Chunki harbiy yurishlar bilan bir qatorda ularning ijtimoiy oqibatlari ham mavjud bo‘lgan. Shu sababli asarni o‘rganishda tarixiy voqealarga ilmiy va axloqiy mezonlar asosida yondashish zarur.⁵⁷

Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida Temuriylar davrining madaniy va ma’naviy hayoti keng va batafsil tasvirlangan. Muallif ushbu davrni nafaqat siyosiy voqealar, balki ilm-fan, adabiyot, san’at va ma’rifat taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ham yoritishga alohida e’tibor qaratadi. Asarda Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug‘bek va Husayn Boyqaro kabi temuriy hukmdorlarning davlat boshqaruvi bilan bir qatorda ilm-ma’rifat rivojiga qo‘shgan hissalar ham yuksak baholanadi.

Shohrux Mirzo hukmronligi davrida mamlakatda nisbatan siyosiy barqarorlik ta’minlanganligi, bu esa iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun qulay sharoit yaratgani ta’kidlanadi. Ayniqsa, Hirot shahri ilm-fan va madaniyat markaziga aylanishi bilan ajralib turadi. Shohrux Mirzo va uning rafiqasi Gavharshodbegim tomonidan madrasa, masjid, kutubxona va boshqa me’moriy obidalar bunyod etilib, ilm ahliga homiylik qilingan. Mirxond ushbu davrni temuriylar davlatining ma’naviy yuksalish bosqichlaridan biri sifatida tavsiflaydi.

Mirzo Ulug‘bek faoliyati ham asarda alohida o‘rin egallaydi. Muallif uni nafaqat hukmdor, balki buyuk olim va ma’rifatparvar sifatida tasvirlaydi. Samarqandda bunyod etilgan rasadxona, madrasalar hamda ilmiy maktablarning faoliyati haqida ma’lumotlar beriladi. Ulug‘bekning astronomiya va matematika fanlari rivojiga qo‘shgan hissasi, uning atrofida jamlangan olimlar faoliyati temuriylar davridagi ilmiy taraqqiyotning yorqin namunasi sifatida ko‘rsatiladi.

⁵⁷ Temuriylar davri manbalaridan «Ravzat us-safo» asarining o‘rganilishi” // XXI asr: fan va ta’lim masalalari, 2024.

Mirxond ilm-fanning davlat taraqqiyotidagi ahamiyatini aynan Ulug‘bek faoliyati misolida yoritadi.⁵⁸

Asarda Husayn Boyqaro davri Temuriylar davlati madaniyatining eng yuksak cho‘qqilaridan biri sifatida baholanadi. Uning hukmronligi yillarida Hirot Sharqning eng yirik ilmiy va adabiy markazlaridan biriga aylangan. Saroyda ko‘plab olimlar, shoirlar, xattotlar, musavvirlar va san‘atkorlar faoliyat yuritgan. Husayn Boyqaro ilm va san‘at ahliga katta e‘tibor qaratib, ularning ijod qilishi uchun zarur sharoitlarni yaratgan. Bu holat mamlakatda adabiyot, tasviriy san‘at, me‘morchilik va musiqa san‘atining ravnaq topishiga xizmat qilgan.

Mirxond Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi buyuk mutafakkirlarning faoliyatiga ham alohida to‘xtaladi. Alisher Navoiy turkiy adabiyotning taraqqiyoti uchun ulkan xizmat qilgan davlat arbobi va shoir sifatida ulug‘lanadi. Uning ilm-ma‘rifatni rivojlantirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlari, xayriya ishlari, madrasa va kutubxonalar qurilishiga ko‘rsatgan homiyligi yuqori baholanadi. Abdurahmon Jomiy esa tasavvuf va adabiyot sohasidagi ulkan merosi bilan e‘tirof etiladi. Mirxond ushbu ikki buyuk siymoni o‘z davrining ma‘naviy ustunlari sifatida tasvirlaydi.

Asarda Temuriylar davridagi me‘morchilik va bunyodkorlik ishlari haqida ham muhim ma‘lumotlar uchraydi. Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda qurilgan masjidlar, madrasalar, maqbaralar va bog‘lar davlatning iqtisodiy qudrati hamda madaniy saviyasini namoyon etuvchi omillar sifatida ko‘rsatiladi. Muallif bu inshootlarni nafaqat me‘moriy obidalar, balki xalq ma‘naviyatini yuksaltiruvchi markazlar sifatida ham baholaydi.

Mirxondning bayonlarida ilmga hurmat, adolatli boshqaruv, ma‘rifatparvarlik, saxovat, insonparvarlik va ezgulik kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Hukmdorlar faoliyati faqat harbiy yurishlar yoki siyosiy muvaffaqiyatlar bilan

⁵⁸ Temuriylar davri manbalaridan «Ravzat us-safo» asarining o‘rganilishi” // XXI asr: fan va ta’lim masalalari, 2024.

emas, balki ularning xalq farovonligi, ilm-fan rivoji va ma’naviy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlashdagi xizmatlari orqali ham baholanadi. Shu sababli “Ravzat us-safo” nafaqat tarixiy voqealarni aks ettiruvchi manba, balki o‘zida yuksak axloqiy va ma’rifiy g‘oyalarni mujassam etgan asar sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Mirxondning “Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo val-muluk val-xulafo” asari Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini o‘rganishda eng muhim va ishonchli yozma manbalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda Temurning davlat arbobi, sarkarda va islohotchi sifatidagi faoliyati batafsil yoritilib, uning siyosiy strategiyasi, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari hamda xalqaro munosabatlardagi o‘rni keng va izchil tarzda bayon etilgan. Shuningdek, temuriy hukmdorlar — Shohrux, Ulug‘bek va Husayn Boyqaro kabi tarixiy shaxslarning siyosiy, ilmiy va madaniy faoliyatlari ham asarda muhim o‘rin egallaydi.

Asarning ilmiy qimmati uning voqealarni xronologik va tizimli tartibda yoritishi, keng geografik hududlarni qamrab olishi hamda ko‘plab ishonchli tarixiy manbalarga tayanganligi bilan belgilanadi. Bu xususiyatlar uni nafaqat Temuriylar davri, balki umumiy Sharq tarixini o‘rganishda ham muhim manbaga aylantiradi. Mirxond o‘z asarida tarixiy voqealarni oddiy bayon qilish bilan cheklanmay, ularni tahlil qilish va sabab-oqibat bog‘lanishlarini ko‘rsatishga ham harakat qiladi, bu esa asarning ilmiy darajasini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, “Ravzat us-safo”da adolat, ilm-fan, ma’rifat, insonparvarlik va axloqiy poklik kabi umuminsoniy qadriyatlar ham keng targ‘ib etiladi. Asarda hukmdorlarning adolatli bo‘lishi, ilm ahlini qo‘llab-quvvatlashi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi g‘oyalari alohida ta’kidlanadi. Shu jihatdan asar nafaqat tarixiy manba, balki yosh avlodni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy meros sifatida qadrlanadi.

Umuman olganda, “Ravzat us-safo” asari Temuriylar davri tarixini chuqur va har tomonlama o‘rganishda beqiyos manba bo‘lib, u o‘zining ilmiy, tarixiy va tarbiyaviy ahamiyati bilan bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirxond. *Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo val-muluk val-xulafo*. VI jild. Tehron: Intishoroti Xayyom, 1959. – B. 3–25.
2. Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 1999. – B. 245
3. *Temuriylar davri manbalaridan «Ravzat us-safo» asarining o‘rganilishi* // XXI asr: fan va ta’lim masalalari, 2024.
4. Abdullayev N. *Tarixnavislik asoslari*. – Toshkent: Universitet, 2017.
5. G‘ulomov Ya. *O‘zbekiston madaniy merosi*. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Hasaniy M. “Ravzat us-safo”da Jaloliddin Manguberdi obrazi. – Toshkent, 2019.
7. Boymatov L. Xo‘jand tarixi va tarixiy manbalar. – Toshkent, 2021.
8. Goksu E. Seljuk History in Rawzat al-Safa. – Ankara, 2015.
9. Onturk V. Ghurids in Rawzat al-Safa and Habib al-Siyar. – Istanbul, 2018.
10. Hidoyat R. *Ravzat us-safoyi Nosiriy*. – Tehron, 1860.